

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XORIJUY TILNI O'RGATISHDA
SO'ZLARNI YODLASH METODIKASINI ZAMONAVIY MULTIMEDIA VOSITASI
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH (INGLIZ TILI MISOLIDA).**

TURGUNBOYEVA FOTIMAXON OTABEK QIZI

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi.

Annotatsya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida xorijiy tilni o'rgatishda, ayniqsa ingliz tilini o'rgatishda, so'zlarni yodlash metodikasini zamonaviy multimedia vositalari asosida takomillashtirish muhokama qilinadi. Maqolada multimedia vositalarining o'quvchilarga so'zlarni o'rganishda qanday yordam berishi, ularning afzalliliklari va samarali qo'llanilish usullari batafsil tahlil etilgan. Audio va video materiallar, biz ishlab chiqgan mobil interaktiv o'yinlar va mobil ilova orqali yangi so'zlarni o'rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shuningdek, takrorlash va o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish kabi metodikalarni qo'llashning muhimligi haqida so'z boradi. Maqola, ingliz tilini o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanishning ahamiyatini ko'rsatadi, bunda 32 nafar 73-maktabning 3-4- sinf o'quvchilari to'garak jarayonlarida ishtirot etdi. 3 oy mobaynida o'tkazilgan tajriba sinov yakunida 16 nafar tajriba guruh o'quvchilarining, 16 nafari so'rovnomal test yakuniy natijasiga ko'ra har biri 200 dan ziyod ingliz tilida so'z yodlagani va bu yondashuv o'quvchilarning til o'rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashiga yordam berishini ta'kidlaydi. O'rtacha nazorat guruhida 15.37 % bo'lsa, tajriba guruhida 187.5% ga yetgani ijobiy xolatni ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: multimedia, interaktiv, texnologiya, audio, video, kommunikativ.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ЗАПОМИНАНИЯ СЛОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ, ОБУЧАЮЩИХ ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ МЕДИА (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА).

Аннотация: В данной статье рассматривается совершенствование методов запоминания лексики на основе современных мультимедийных средств при обучении иностранному языку учащихся младших классов, особенно при обучении английскому языку. В статье представлен подробный анализ того, как мультимедийные средства могут помочь учащимся в изучении слов, их преимущества и способы их эффективного использования. Подчеркивается, что процесс изучения новых слов может быть более интересным и эффективным с помощью аудио- и видеоматериалов, разработанных нами мобильных интерактивных игр и мобильного приложения. Также говорится о важности использования таких методов, как повторение и учет интересов учащихся. В статье показана важность эффективного использования мультимедийных технологий в обучении английскому языку, в котором в кружковых процессах приняли участие 32 учащихся 3-4 классов 73- школа. По итогам 3-месячного пилотного тестирования 16 студентов экспериментальной группы, 16 студентов экспериментальной группы, согласно окончательным результатам анкетного тестирования, каждый запомнил более 200 слов на английском языке, и такой подход значительно улучшился. В процессе изучения языка студентами подчеркивается, что это способствует повышению уровня. В контрольной группе процент составляет 15.37%, в то

время как в экспериментальной группе он достиг 187.5%, что можно рассматривать как положительный результат.

Ключевые слова: мультимедийные, интерактивные, технологии, аудио, видео, коммуникативные.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF MEMORIZING WORDS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO PRIMARY STUDENTS ON THE BASIS OF MODERN MULTIMEDIA (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH).

Abstract: This article discusses the improvement of vocabulary memorization methods in teaching foreign languages, especially English, to primary school students based on modern multimedia tools. The article analyzes in detail how multimedia tools help students learn words, their advantages and effective methods of use. It is emphasized that the process of learning new words can be more interesting and effective through audio and video materials, mobile interactive games and mobile applications developed by us. It also discusses the importance of using such methods as repetition and taking into account students' interests. The article shows the importance of effective use of multimedia technologies in teaching English, in which 32 students of grades 3-4 of 73-school participated in the circle processes. At the end of the 3-month pilot test, 16 students in the experimental group, 16 of whom completed the questionnaire test, each memorized more than a 200 English words, indicating that this approach significantly improves students' language learning. In the control group, the percentage is 15.37%, while in the experimental group, it reached 187.5%, which can be considered a positive outcome.

Keywords: multimedia, interactive, technology, audio, video, communicative.

Kirish. Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi xorijiy tillarni boshlang‘ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o‘qitilishiga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Ingliz tili boshlang‘ich ta’limga o‘quv predmeti sifatida kiritildi, mактабгача va boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi¹. Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ingliz tili o‘qitish amaliyotida to‘plangan an’anaviy va xorijiy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy multimedia dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Ingliz tilini o‘rganish jarayoni zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida. Boshlang‘ich ta’limda tilni o‘rganishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga tilning asosiy elementlarini, jumladan, so‘z boyligini rivojlantirishni o‘rgatishdir. So‘zlarni yodlash – til o‘rganishda eng asosiy qadamdir. Biroq, klassik yodlash metodikalaridan tashqari, zamonaviy multimedia vositalari yordamida bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin. Ushbu maqolada ingliz tilini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishda so‘zlarni yodlash metodikasini zamonaviy multimedia vositalari yordamida takomillashtirish haqida so‘z boradi. Bugungi rivojlangan davrda mamlakatimizda xar bir yosh ingliz tilini ma’lum darajada bilishning namoyishi sertifikatlash komponenti talab qilinadi². Maqolani yozish davomida nazariy xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi chet tilidagi video roliklarni,

¹ Tajibayev G.Sh. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O‘QITISH,o‘quv qo‘llanma. NAMANGAN — 2019y-5b

²J.J. JALOLOV, G.T. MAKHKAMOVA, Sh.S. ASHUROV ENGLISH LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY. TASHKENT-2015y-9b


namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniyedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lismeni ta'minlaydi³. Ijtimoiy tarmoqlar va umuman Internetning keng tarqalishi odamlarning tillarni o'rganish uslubini ijobjiy tomonga o'zgartirdi. Zamonaviy til o'qituvchilari uchun bugungi talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib dars o'tish juda muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xorijiy tilni o'rgatishda so'zlarni yodlash metodikasini zamonaviy multimedia vositasi asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi:

- a) Dastlabki va yakuniy so'z boyliklarini bilish uchun so'rovnama testini ishlab chiqish va o'tkazish.
- b) Zamonaviy dastur ilova ishlab chiqish.
- c) Tajriba guruh o'quvchilariga o'rgatish va birgalikda mashqlarni bajarish.
- d) Illova dasturidagi rag'batlantirishlar soniga qarab o'quvchilarni faoliyatini nazorat qilish.
- e) So'z bilish darajasini aniqlash va diagnostika natijalarini tahlil qilish.

Tadqiqot uslublari: Ijtimoiy tarmoqlar va umuman Internetning keng tarqalishi odamlarning tillarni o'rganish uslubini ijobjiy tomonga o'zgartirdi. Zamonaviy til o'qituvchilari uchun bugungi talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib dars o'tish juda muhimdir.



³ A. M. Sodiqovna O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA İLMİY TADQIQOTLAR JURNALI 14-SON 2022y 1013b.

Biz tadqiqotimiz davomida Andijon viloyatining 73-umumiyl o'rta ta'lim maktabining 3-4- sinf o'quvchilaridan foydalanib so'z yodlashning zamonaviy metodikasini ishlab chiqdik. Biz ishlab chiqqan zamonaviy multimediali metodika quyidagi usullarni o'zida aks etiradi. Multimedia - zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o'zaro ta'siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi⁴. "Word Wiz Kids" — bu boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ingliz tilini o'rganish va so'z boyligini oshirishga yordam beruvchi innovatsion mobil ilova dasturidir. Illova zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanib, o'quvchilarga ingliz tilidagi yangi so'zlarni o'rganish va mustahkamlashda qiziqarli va samarali usullarni taklif etadi. Ilovaning asosiy maqsadi — bolalar uchun ingliz tilidagi so'zlarni yodlash, talaffuzni yaxshilash, va grammatika asoslarini o'zlashtirishni oson va qiziqarli qilishdir.

Ilova kirish qismi Ilovaning boshlang'ich sahifasi rang-barang, va o'quvchilarga qulay tarzda yaratilgan. O'quvchilar uchun dastur juda sodda va tushunarli interfeysga ega bo'lib, ular osonlik bilan kerakli bo'limlarga kirishlari mumkin. Har bir bo'limga mos piktogrammalar va qisqacha tavsiflar yordamida foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarni tezda tushunish imkoniyati yaratilgan. Ro'yxatdan o'tish va foydalanuvchi profili. Illova foydalanuvchilardan ro'yxatdan o'tishni talab qiladi. Bu jarayon bolalar uchun oddiy va tez amalga oshiriladi, foydalanuvchi o'z ismi, yoshini va til o'rganish darajasini kiritishi mumkin. Profilni yaratganidan so'ng, o'quvchi dasturdagi turli o'yinlar va mashqlarni mos ravishda boshlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

1. Ranglar orqali so'z yodlash- Ranglarni o'rganishda tasvirlar, rasmlar va animatsiyalar yordamida o'quvchilar ranglar bilan bog'liq so'zlarni eslab qolishlari osonlashadi. Masalan, biror rangni tasvirlovchi rasm yoki animatsiya yordamida yangi so'zni kiritish, o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va ularning yodlash jarayonini tezlashtiradi (1-rasm).

⁴J.R. Ergashev ta'lim tizimida multimedia texnologiyalari va ularidan foydalanish foydalanish. Germaniya.konferensya-2024y-161-163b.

75 common irregular verbs								VocabularyPage.com			
Infinitive	Past Simple	Past Participle	Infinitive	Past Simple	Past Participle	Infinitive	Past Simple	Past Participle			
beat	beat	beaten	fall	fell	fallen	forget	forgot	forgotten			
become	became	become	feel	felt	felt	fight	fought	fought			
begin	began	begun	find	found	found	fly	flew	flew			
bend	bent	bent	fight	fought	fought	forgive	forgave	forgiven			
bet	bet	bet	freeze	froze	frozen	get	got	gotten			
bite	bite	bitten	give	gave	given	go	went	gone			
bleed	bled	bled	grow	grew	grown	have	had	had			
blow	blew	blewn	hear	heard	heard	sleep	slept	spoken			
			hide	hid	hidden	speak	spoke	spoken			
			hit	hit	hit	spend	spent	spent			
			hold	held	held	take	took	taken			
			hurt	hurt	hurt	teach	taught	taught			
			keep	kept	kept	tell	told	told			
			know	knew	known	think	thought	thought			
			lay	laid	laid	understand	understood	understood			
			lead	led	led	wear	wore	worn			
			leave	left	left	win	won	won			
			lend	lent	lent	write	wrote	written			

Ranglar orqali so'z

yodlash 1- rasm.



2. Raqamli o'yinlar orqali so'z yodlash- Raqam va so'zni juft raqamga so'z moslangan. Masalan: 1 – apple (olma) 2 – ball (toʻlosh) metodikamizda esa- Kartochkalarga raqamlar yozib, u → or qilish. Bolalar “mobile phone” dagi ilova dasturidan raqamni tanlab, Masalan, "5" raqami ostida "orange (apelsin)" boʻlsa, bolalar "5 oʻsish" deb yozishi kerak. Bir amaliyotni boshladi. Dasturda har bir rang muayyan mavzuga mos keladi.

raqamlar orqali so'z
yodlash 2-rasm

3.Rag'batlantirish orqali so'zlarni yodlash- Biz tavsiya qilgan ilova dasturining asosiy qismlaridan boʼlib, rag'batlantirish orqali so'z yodlash jarayoni oʻquvchilarining motivatsiyasini oshiradi, so'zlarni tez va samarali oʻzlashtirishlariga yordam beradi. Ilmiy yondashuvlar shuni koʼrsatadiki, oʼyinlar, maqtov va mukofot tizimlari orqali rag'batlantirish oʻquvchilarining yodlash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biz har bir 10 dona so'z ochilganidan so'ng oʼquvchilar so'zni aytib beradi, ilova dasturi orqali yulduzchalar taqdim qilganmiz. Xar bir yulduzchalar soniga qarab ularning so'z boyligi oshganlik darajasini nazorat qila olamiz.

Rag'batlantirish



4.Sharlar ortidagi so'zlarni aytib berish usuli- sharlar orqali so'z yodlash bolalarning diqqatini jalb qilish, taʼlimga qiziqish uygʼotish va so'z boyligini oshirish uchun samarali usuldir. Bu usul oʼquvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirishga va bilimlarni uzoq muddatli xotirada mustahkamlashga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni koʼrsatadiki, bunday interaktiv yondashuv oʼqitish jarayonining samaradorligini oshiradi va bolalarni taʼlimga yanada qiziqish bilan yondashishga undaydi. Dasturda har bir rang muayyan mavzuga mos keladi. Masalan: Qizil

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge><https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

sharlar – mevalar (apple, orange). Yashil sharlar – hayvonlar (cat, dog). Moviy sharlar – buyumlar (table, chair).

5.Ovozli eshitish orqali takrorlash metodi. Ovozini eshitish orqali takrorlash metodi bolalar va kattalar uchun samarali o‘qitish usuli hisoblanadi. Bu usul talaffuzni yaxshilash, yangi so‘zlarni o‘zlashtirish va eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur metodning muntazam qo‘llanilishi til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi va uzoq muddatli xotirani mustahkamlaydi.

Natijalar va muhokama. Biz tadqiqotimiz davomida so‘rovnama o‘tkazdik. So‘rovnomada 200 dan ortiq so‘z mavjud edi. Tajriba va nazorat guruhga bolalarni ajratib oldik. A 16 ta tajriba, va B16 ta nazorat guruhni edi. Dastlab 200 ta so‘zning barcha o‘quvchilar o‘rtacha bilish darajasi 10 -15 tadan so‘z bo’lsa,(1-jadval) tajriba sinov davomida biz o‘quvchilarning A guruhiga to’garaklarni maxsus kompyuter xonasida 3 oy mobaynida o‘tkazdik.

(1-jadval)

№		Guruqlar	Dastlabki bilish darajasining o‘rtacha soni ($x \pm \sigma$)
1	A.	Tajriba	Jami: 16 ta umumiyligi 3000 ÷ 16 = 187.5
2	B.	Nazorat	Jami: 16 ta umumiyligi 246 ÷ 16 = 15.37

Rivojlantiruvchi jarayonda biz to’garakning yakuniy qismida 15 daqiqa mobaynida kirish usulidan tashqari 7 usulli metodika ilovaning so‘z yodlash metodlaridan foydalandik. Biz ishlab chiqqan zamonaviy multimediali metodika rivojlantirish uchun 7 bosqichda 3 marotabadan takrorlandi. Natijada sinovning yakuniy qismida biz yana so‘rovnama o‘tkazdik. So‘rovnomada 200 dan ortiq so‘zni o‘rtacha A guruh 170-195 tadan yod olgan bo’lsa, B guruhimizda esa 12-20 tadan natija qayd etildi, ya’ni o‘zgarish sezilmadi (2-jadval). Biz tavsiya qilgan metodika juda samarali edi.

(2-jadval)

№	A guru h tajrib a	Rangl ar orqali so‘z yodlas h	Raqaml i o‘yinlar orqali so‘z yodlash	Rag’batlantiri sh orqali so‘zlar ni yodlash	Sharlar ortidagi so‘zlar ni ayтиb berish usuli	Ovozli eshitish orqali takrorlas h metodi	Jami so‘zla r soni	B guruh nazora t	Jami so‘zla r soni
1	F.T	35	25	55	60	20	195	D.T	18
2	Z.T	36	24	45	55	30	190	A.D	17
3	G.D	31	22	43	51	40	187	H.G	15
4	M.D	24	30	48	54	30	186	S.M	17
5	A.M	25	32	46	53	38	191	G.O	13
6	F.M	35	28	51	36	36	186	O.O	13
7	S.M	37	22	53	30	40	182	T.F	16
8	N.S	36	23	50	28	50	187	A.G’	18
9	O.T	35	24	58	25	40	182	T.O	19
10	M.T	30	28	61	24	43	186	T.N	14
11	D.T	32	30	58	31	32	183	Q.O	11
12	X.I	36	25	50	38	37	186	O’K	16

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

13	M.I	38	44	41	32	36	191	Q.U	17
14	D.A	29	35	41	45	37	187	O'.X	16
15	M.S	37	39	42	36	39	193	S.N	14
16	A.M	38	38	41	29	39	185	T.M	12

Tadqiqot natijalaridan shuni aniqlandiki, multimedia vositalari asosida ishlab chiqilgan metodika so‘z yodlash jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Tajriba guruhining o‘quvchilari o‘z so‘z boyligini 170-195 ta so‘zgacha oshirgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu natija o‘zgarishsiz qolgan. Bu metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot o‘quvchilarga yangi so‘zlarni o‘rganish va yodlashda multimedia vositalarining muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Takrorlash va interaktiv yondashuvlarning samaradorligi, o‘quvchilarni motivatsiya qilish va so‘zlarni tezda yodlashlariga yordam beradi. Bizning tavsiya qilgan metodikamiz o‘quvchilarga so‘zlarni yodlashda va tilni o‘rganishda samarali yordam beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda so‘z yodlash metodikasini zamonaviy multimedia vositalari yordamida takomillashtirishning samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari, ayniqsa mobil interaktiv ilovalar, o‘quvchilarga so‘zlarni o‘rganishda sezilarli darajada yordam beradi. Sinovlar va tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodika o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirishda samarali natijalar ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, tadqiqotda o‘quvchilarga yangi so‘zlarni yodlashda interaktiv yondashuvlar va takrorlash metodlarining o‘rnini katta ekani ta’kidlandi. Bu metodika o‘quvchilarga nafaqat ingliz tilini o‘rganish jarayonida, balki umumiy til o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham yordam beradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari, ayniqsa, bolalar uchun mo‘ljallangan interaktiv dasturlar va o‘yinlar orqali so‘zlarni o‘rganish, yodlash va mustahkamlash jarayonlarini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu metodika yosh o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi.

Umuman olganda, zamonaviy multimedia vositalarining o‘quvchilarga so‘z boyligini oshirishdagi samaradorligi, ilg‘or ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi va bu metodika chet tillarni o‘rgatishda keng qo‘llanilishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Tajibayev G.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish, o‘quv qo‘llanma. Namangan — 2019y-5b
2. J.J. Jalolov, G.T. Makhkamova, Sh.S. Ashurov English language teaching methodology o‘quv qo‘llanma. Tashkent-2015y-9b
3. A. M. Sodiqovna O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 14-soni 2022y 1013b.
4. J.R. Ergashev ta’lim tizimida multimedia texnologiyalari va ularidan foydalanish foydalanish. konferensya Germaniya-2024y-161-163b